

# MUSIQA DARSLARIDA MILLIY CHOLG'ULAR TARIXI BILAN TANISHTIRISH

**Tosheva Marjona Rustam qizi**

*Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada milliy cholg'u asboblaridan dutor asbobining tarixi hamda undan foydalanish usullari haqida ma'lumot berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Chertib chalish, qo'sh tor, «katarsis», "Qashqarcha", D-dur tonalligi.*

Xalqimizning musiqiy boyliklari juddayyam ko'p qirrali, sermazmun va rang-barangdir. Musiqiy cholg'ularimiz insoniyat ma'naviyatini ohanglar sadosida tarannum etuvchi vosita ya'ni xalq ijodiyotining mahsuli hisoblanadi. Azal-azaldan xalq orasida shakillanib borib, mohir sozandalar, mohir soz ustalari tomonidan yasalib, mukamallashtirilib, yangilanib kelmoqda. Ohangdor, serjilo ajoyib kuy-sadolarimiz, qo'shiqlarimiz, aytimlarimiz kishiga quvonch, xursandchilik bag'ishlaydi, og'ir damlarni yengil qiladi, xotiralarni eslatadi. Biror musiqani tinglaganda osha musiqa orqali xar xil hayot kechinmalarini yodga olishadi. U insonlarning oliyjanob fazilat-u xislatlari va tuyg'ularini ifodalab beruvchi kuchga egadir.

Yurtimizda mustaqillik sharofati bilan juda ko'p yillik tarixini mukammal o'rganish, tadqiqotlarni olib borish kabi katta imkoniyatlar va shart sharoitlar vujudga keldi. Shu bilan birga, mahalliy musiqa uslublari, o'zbek musiqiy cholg'ulari, folklorlari, mumtoz musiqalar tarixini yoritib berish uchun nodir manbaalar va qo'il yozmalardan bemalol foydalanish mumkin bo'lgan shart-sharoitlar vujudga keldi.

Sharq xalqning musiqiy cholg'ulari eng qadimi o'ziga xos jonli san'atdir. Ana shunday cholg'u sozlardan biri - Dutor cholg'u asbobi bo'lib- o'zbek xalqining madaniyati bilan tarixan chambarchas bog'liq san'at ramzi hisoblanadi.

Dutor cholg'usi - chertib chalinadigan qo'sh torli musiqiy asbob bo'lib, O'zbekistonda va qo'shni Sharq mamlakatlarida yashayotgan o'zbek,tojik, turkman va qoraqalpoq xalqlari orasida keng ommalashib,keng tarqalgandir.

O'zbek xalqining ma'naviy merosi mazmunida dutor cholg'usi ijrochiligi aloxida o'ringa egadir. "Musiqa san'atidagi asosiy faoliyatlardan biri cholg'u ijrochiligidir. A'lo darajada ijro etilgan ijroni tinglab, lazzat, quvonch, ilhom tuyg'ularini his etamiz yoki yunonlar aytib o'tganlaridek, «katarsis» - ichki, ruhiy poklanish va yangilanish jarayonini boshimizdan kechiramiz."<sup>55</sup>

Cholg'u asboblari ta'lifi orasida dutor ta'lifi ham alohida e'tiborli va muhim o'rinn tutadi. San'at yo'naliishi dutor cholg'usi ijrochiligi bo'yicha bilim olayotgan o'quvchi faqat o'zbek xalq musiqasi bilangina cheklanib qolmasdan, ijrochi qardosh xalqlar yaratgan musiqa asarlari va jahon musiqachilarini ijro etadigan musiqalarni o'rganishlari va ularni yuksak darajada mahorat bilan ijro etilib musiqa ixlosmandlarini baxramand etishlari lozim bo'ladi. Buyuk alommamiz Abdurauf Fitrat tomonidan ham yuksak darajada mahoratli dutor

<sup>55</sup> <sup>1</sup> Qodirov R.G'. Musiqa psixologiyasi. - T.: Musiqa, 2005. -9 bet

ijrochilik uslubi fikr mulohazalar bildirib o'tganlar.

Dutor cholg'u asbobi ijrochiligidagi yorqin emotsiyonal mazmun-mohiyat, chuqur badiiy estetik qarash va har tomonlama mukammal musiqiy ifodaviylikni o'zida mujassam etgan sermazmun xarakterdagi, jo'rnavoz ya'ni fortepiano cholg'usi bilan ijro etiluvchi turli janr va shakllarda yozilgan ko'plab musiqiy asarlar mavjud bo'lib, soha rivoji hamda taraqqiyotida ularning o'rni hamda ahamiyati benihoyat katta o'rin egallaydi. Dutor cholg'u asbob ijrochiligi borasida ta`lim olib kelayotgan yosh dutorchilarda, jo'rnavoz ya'ni fortepiano cholg'usi bilan ijro etiladigan turli janrdagi asarlarning ijro talqinlari to'g'risidagi umumiy musiqiy, nazariy hamda amaliy ko'nikmalar va tushunchalarni shakllantirishda hamda ular bilan to'g'ri ish olib borilishi, salohiyatini o'stirish talab etilganligi boisdan, fortepiano cholg'usi bilan bilan birga ijro etiluvchi asarlarning garmonik, strukturaviy, jixatlari, kompozitorning musiqiy tili va boshqalardan ajralib turuvchi ifodaviylik uyg'unligi hamda bunday asarlarga xos chuqur mazmun-mohiyatning umumiy ko'rinishlarini misollar tariqasi bilan yoritib, mavzuning ijrodagi murakkablik jihatlarini bartaraf etish yo'llarini bilish muhim sabablaridan sanaladi. Shu jumladan milliy cholg'u ijrochiligi uchun yozilgan "Qashqarcha" deb nomlanuvchi o'zbek xalq kuyi D-dur tonalligida yozilgan bo'lib uning ijrosi birinchi navbatda kuy, ritm va garmoniyani tahlil qila olish, xalqona xarakterining o'ziga xos musiqiy tilini, uslubini to'liq anglash singari mukammal ijrochilik ko'nikmalarini talab etadi.

Yuqoridagi misollarda asarning asosiy tonalligi yorqin bayon qilingan bo'lib, 2/4 o'lchovi bilan fortepiano partiyasining basidagi yashirin melodik harakat va o'ng qo'lda asarning asosiy mavzusini ko'rsatuvchi melodik harakatning kuchli hissadan boshlanganini ko'rshimiz mumkin. Dutor ta'limining mazmuni o'quvchilarning ijodiy ijrochilik qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Shu tufayli ijobiy natijalarga erishish yo'llarini izlash savodli, madaniyatli, chuqur bilimli o'qituvchi shaxsiga bog'liqdir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017 yil 27 iyuldaggi PQ-3151son Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori 2016-yil 31-dekabr.
3. Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 maydag'i "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 391-son qaroriT.:2019
4. Sh. Mirziyoyev. "Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz" - "O'zbekiston" nashriyoti, 2017 yil, Toshkent.
5. Sh. Mirziyoyev. "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi" - "O'zbekiston" nashriyoti, 2017 yil, Toshkent.
6. Sh. Rahimov , A. Lutfullayev. "Cholg'ushunoslik" darsligi. Toshkent-2020.
8. Karimova D. A. " Musiqa o'qitish texnologiyalari va loyixalash " darslik. Toshkent-2021.